

UO‘T: 634.1.03/631.54

OLMA NAVLARINI NAV TAVSIFINI O‘RGANISH ASOSIDA TAXLIL ETISH

Axmadjonov Avazbek Akmaljon o‘g‘li mustaqil tadqiqotchi

Ibragimov Odiljon Olimjonovich q.x.f.d., professor

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich., q.x.f.f.d (PhD)

FarDU Mevachilik va sabzavotchilik kafedrası

Email; idrisovhusanzon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada olmaning maxalliy navlari to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan bo‘lib, ularning nav tavsifi o‘rganilgan va shu asosda tahlil etilgan

Kalit so‘zlar: olma, meva, nav, Golden Delishes, Oq Rozmarin , Jonatan , Renet Simerenko, oziq-ovqat, shox, xosil, ko‘chat.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va foydalanish muddatini uzaytirish murakkab vazifadir. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini hosildorligi yuqori bo‘lishiga qaramay mahsulotni iste‘molchiga yetkazishni hamma bosqichlarida sifat va miqdor yo‘qotishlariga yo‘l qo‘yilsa, ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi.

Dunyo miqyosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hosilini saqlashda ularning sezilarli qismi yo‘qoladi. Oziq – ovqat va qishloq xo‘jaligi xalqaro tashkiloti ma‘lumotiga ko‘ra, don va don mahsulotlarini saqlash jarayonida bir yillik yo‘qotilish 20–30 % ni tashkil etadi. Faqatgina mahsulot xususiyatini va unda kechadigan jarayonlarni, shuningdek ishlab chiqilgan saqlash rejimlarini mohiyatini to‘liq anglash yo‘qotishlarni minimum darajaga tushirishga imkon beradi. Saqlash jarayoni to‘g‘ri tashkil etilganda, mahsulotda sifat yo‘qotilishi sodir bo‘lmaydi. Sifatni yo‘qotish faqatgina mahsulot juda uzoq vaqt saqlanganda sodir bo‘ladi. Mahsulotlarning sifati bir qator salbiy jarayonlar: mikroorganizmlar yoki hasharotlar

ta'siri, mahsulotlarni unib qolishi, pindiklanishi yoki ko'karib qolishi, uni kemiruvchilar tomonidan zararlanishi, shuningdek mexanik shikastlanishlar ta'sirida amalga oshadi.

O'zbekistonda olma asosiy mevali ekinlardan biri bo'lib, sanoat asosida tashkil etilgan bog'larning 70% ini olmalar egallaydi. Respublika aholisini mazkur mevaga bo'lgan ehtiyojini, qayta ishlash sanoatini xom-ashyoga bo'lgan talabini yanada to'laroq qondirish uchun yaqin kelajakda mahsulot yetishtirishni ikki baravar oshirish lozim bo'ladi. Ushbu muammoni eng qulay va maqbul yechimi – bu bog'dorchilik amaliyotiga kam o'suvchi vegetativ payvandtaglar asosida yetishtiriladigan o'simliklarni tadbiiq etish va shu orqali sanoat asosidagi bog'larda o'simlik zichligi va ular mahsuldorligini ikki va undan ortiq darajada oshirishga erishiladi deb yozadi, A.S.Pokrovskaya [1990].

Qator ilmiy tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, meva va uzumning kimyoviy tarkibiga geografik omil juda katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, R.V.TSerevitinovning tekshirishlariga qaraganda, kechki nav olmalarda qand miqdori va kletchatka shimoldan janubga ko'chgan sari ko'payib, kislota miqdori esa kamayib boradi.

Mevalarni kimyoviy tarkibi haqidagi avvalgi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, asosan mevalarda qand va kislota miqdorini aniqlash bilan kifoyalanib qolindi, bu esa mevalarni energetik va ta'm ko'rsatkichlarini harakterlab berdi. Juda kam holatda vitamin, mikroelementlar va boshqa biologik aktiv moddalarni mevalarni shafobaxshligini aniqlash maqsadida va ayniqsa bu yovvoyi mevalarda ularni vitaminlik resurslarini ko'rsatish uchun zarur bo'lardi, [L.I.Vigrov 1989, V.A.Gudkovskiy 1993].

R.Ya.TSiprush [2001], Yu.K.Kontrimas [1987] lar tomonidan shu narsa isbotlandiki ob-havo, yer suv sharoiti mevalarni kimyoviy tarkibi va vitamin "S" miqdoriga katta ta'sir ko'rsatar ekan.

Olma mevasi pishib yetilish jarayonida juda tez o'z og'irligini ko'paytirib, quruq modda miqdorini ortirib boradi, suv va kislota miqdori kamayib boradi.

Quruq modda ko'payishi olma mevasini suv miqdorini kupayib qand moddasini

barglarga kelishiga bog'liq bo'ladi. S.N. Bruev [1985]. Avvalgi o'tkazilgan tadqiqotlar asosan mevalardagi qand moddasining va kislota miqdorini aniqlashga qaratilgan bulib, ular faqat mevalar ta'mi va quvvatini aniqlab berishga qaratilgan. Juda kam ilmiy ishlar mevalardagi vitaminlar, kislatalar, mikiroelementlar va boshqa biologik aktiv moddalrni aniqlab mevalarni inson organizmi uchun foydaligini aniqlab beradi. L.A. Vigorov [1989], L.V. Metlitskiy [1985].

Renet Simerenko. Ushbu olma navi O'zbekistonda qishki sharoitda saqlash va yangiligida iste'mol qilish uchun yetishtiriladi. Tashqi va ichki bozorlarda tanilgan bo'lib mashhurdir.

Renet Simerenko navining daraxti o'rta bo'yli, keng shox-barglarga va pastga osilib turgan shoxlar bilan ajralib turadi. To'liq mevaga kirgan daraxt 6-7 metr balandlikda 10-19 metr kenglikda o'sadi. Yuqori hosil bergan daraxt ko'pincha shoxlari sinib ketadi, shuning uchun bunday olma bog'lariga albatta ko'proq tirgovichlar qo'yilishi kerak.

Skelet shoxlar asosiy shoxlardan to'g'ri to'rt burchak holda o'sadi, yangi novdalar ingichka bo'lib yashil rangda bo'ladi.

Barglari yirik, tuxumsimon shaklda, yashil rangda, o'rtacha tuksimon.

Gullari o'rtacha kattalikda, oq-alvon rangda.

Mevalari o'rtachadan kattaroq, yoshi o'tgan daraxtlarda suv tanqis paytida mayda bo'ladi. Mevalarni katta kichikligi 50-58 mm, balandlikda diametri 65-70 mm, o'rtacha massasi 120 gramm keladi.

Mevaning po'st qismi zichroq, yog'li, och tusli, yashil o't rangda, ayrim vaqtda quyosh tushgan tomoni mevalar alvon nuqtalar bilan qoplanadi. Urug' kamerasi to'g'ri joylashgan bo'lib, urug'donga yaqin turadi.

Mevaning et qismi oq rangda terimdan so'ng pishib yetilish vaqtida suvli sariq rangda bo'ladi va donador mayinga aylanadi.

Pishib o'tib ketgan mevalarning et qismi unsimon bo'lib qoladi. Martning ikkinchi yarmida vegetatsiya boshlanib, noyabrning ikkinchi yarmida tamom bo'ladi.

Vegetatsiyaning umumiy davri 240-250 kun hisoblanadi. Renet Simerenko navining gullash davomiyligi 8-12 kun hisoblanadi.

Bu navga eng yaxshi changlovchi navlar Bely naliy, Zolotoye Grayma, Boyken, Renet Simerenko (Orleanskiy).

Olma daraxti agar payvand qilingan bo'lsa 35 yil umr ko'radi. Renet Simerenko navi yer suvning yaxshi sharoitida har bir daraxt 145 kg hosil beradi.

Tog' oldi mintaqalarining janubiy yon bag'rilarida olma daraxti yaxshi hosil beradi, lekin shimoliy yon bag'rilarida Renet Simerenko navi sovuq ta'siriga uchraydi.

O'rtacha olma mevasini 5-15-sentabrda terib olish tavsiya etiladi.

Ushbu nav kechki navlar ichida hosil sifati bo'yicha birinchi o'rinda turadi va tovar sifatli mevalar bo'yicha 57-60% ni tashkil qiladi.

Taxminiy kimyoviy tarkibi bo'yicha Renet Simerenko navida 81,5 % suv, 12,7 % shakar, 0,6 % kislota miqdori va erimaydigan quruq modda 22,7 % ni tashkil qiladi.

Renet Simerenko olma navini asosiy fazilatlaridan biri uning tezpisharligi, hosildorligi, uzoq muddat saqlanishligi va yaxshi ta'mi.

Ushbu navning kamchiliklaridan biri-sovuqqa chidamsizligi, har yili hosil bermasligi.

Jonatan Ukrainada va Moldaviyada keng tarqalgan. Xoroshovka zimnyaya, Oslamovskoye deb ham ataladi. O'zbekistonda ham ekiladi. Sovuqqa chidamli, daraxti kuchli o'sadi, serhosil, ko'chati o'tqazilgandan keyin 6-7-yili hosilga kiradi. Mevasi o'rtacha, biroz yumaloq va qovurg'ali. Meva po'sti yaltiroq, silliq, yashil-tilla rang, saqlanganda tilla rang sariq tusga kiradi. Eti qumoq-qumoq, sersuv, nordon-shirin, xushbo'y. Mevasi mart oyigacha saqlanadi.

Parmen zimniy zolotoy kuzgi nav bo'lib, O'zbekistonning deyarli hamma tumanlarida ekish uchun tavsiya etilgan. Daraxti o'rtacha kattalikda. Mevasining vazni 80-120 g. Pishganda mevasi sariq, qizil taram-taram rangda bo'ladi. Ko'chati ekilgach, 4-5-yili, ba'zan 6-8-yili hosil bera boshlaydi. Serhosil, to'liq hosilga kirgan

daraxtidan 200-300 kg dan hosil olinadi. Sovuqqa chidamsiz. Suv bilan yaxshi ta'minlangan unumdor tuproqli yerlarda yaxshi o'sadi, juda quruq va sernam yerlarda tez kasallanadi. Tuproqda nam yetishmaganda hosilini to'kib yuboradi.

Oq Rozmarin qishki nav bo'lib, ko'chati ekilgandan keyin 8-10-yili hosilga kiradi. Ayrim turlaridan 1500 kg dan va undan ko'p hosil olinadi. Daraxti katta, shox-shabbasi g'uj va tik bo'lib o'sadi.

Mevasi cho'zinchoq, ovalsimon, vazni 80-100 g keladi, po'sti yashil-sariq, ustida oq nuqtalari bor. Eti oq, saqlanganda bir oz sarg'ayadi, sersuv, mazasi nordon-shirin, xushbo'y. Bu nav O'zbekistonning deyarli barcha tumanlarida ekiladi.

Golden Delishes — Shimoliy Amerikadan keltirilgan qishki nav bo'lib, daraxtlari pakana bo'yli 3-4-yili hosilga kiradi. Renet-Simirenko olma navi bilan bir vaqtda gullab hosil beradi. Bu nav Renet Simirenko, Monatan, Alpinist navlari changi bilan yaxshi changlanadi va ularni changlantiradi. Mevasini maxsus binolarda ancha vaqt saqlash mumkin. Mevasi yirik, o'rtacha vazni 130-160 g keladi, cho'zinchoqroq yoki yumaloq-cho'ziq bo'lib, rangi sariq tillasimon. Mevasining po'stida kulrang dog'lar va ayrimlarida zangsimon dog'lar uchraydi. Eti yaltiroq, sariq, o'rtacha tig'iz, hushbo'y. Golden Delishesning bir necha sinonimlari - Starkspur Golden Delishes, Yella spur Delishes, Goldspur sinonimlari bor.

Stark tez hosilga kiradigan serhosil kuzgi nav. Mevasi juda yaxshi tovarlik xususiyatlariga ega, Yirik (140-160 g) yumaloq konussimon shaklda, ko'kish-sariq rangda, yoyilib ketgan to'q sariq qizil yo'l-yo'l tarami bor. Yaxshi saqlanadi, tashishga chidamli. Eti sarg'ish, sersuv, nordon-shirin.

Daraxtlari juda bo'ychan, shox-shabbasi ancha zich joylashgan, qishga chidamli, ularga yassi shakl berish oson.

FOYDALANILAN ADABIYOTLAR

1. Metlitskiy L.V., TSexomskaya. "Uboroka i xraneniya yablok" Pищепром. izd. M 1978.
2. Mirzaev M., Rizaev R.M. "Meva-uzumlarni qayta ishlash va saqlash" T.: Mehnat 2005.

3. Dospexov B.A. Metodika polevogo opita. - M.: Kolos, 1985. - 317 s.

4. Dala tajribalarini olib borish metodikasi O'zPITI.2007 yil.

5. Idrisov, X. A., & o'g'li soliyev, a. M. (2022, may). Sug 'oriladigan maydonlarda mosh (*Phaseolus aureus piper.*) Navlarining tavsifi. In *international conferences on learning and teaching* (vol. 1, no. 7, pp. 17-23).

6. Idrisov, X. A., Atabayeva, X. N. (2022, may). Loviya va mosh ekinlarining umumiy ahamiyati va biologik xususiyatlarini tahliliy o'rganish. In *international conferences on learning and teaching* (vol. 1, no. 8, pp. 644-651).

7. Xalima, A., Xusanjon, I., & Abdulvosid, S. (2022). O'tloqi-botqoq tuproqlar sharoitida mosh (*Phaseolus aureus piper*) ning o'sishi, rivojlanishi va don hosildorligi. *Research and education*, 1(2), 373-381.

8. Xusanjon, I., & Abduxolik, K. (2022). Moshning yangi navlarini yaratishda seleksiya ko'chatzorida o'tkazilgan tadqiqotlar. *Research and education*, 1(4), 50-56.

9. Abdujabborovich, I. X., Ozodbek, A., Nodirbek, X., & Abrorbek, a. (2022). Sug 'oriladigan maydonlarda mosh (*Phaseolus aureus Piper*) navlarining simbiotik faoliyatiga ekish muddati va me'yoring ta'sirini o'rganish. *Science and innovation*, 1(1), 615-624.

10. Abdujabborovich, I. X., o'gli, u. X. I., qizi, a. D. A., qizi, y. M. N., & ogli, m. A. A. (2022). Tipik bo'z tuproqlar sharoitida mosh (*Phaseolus aureus Piper*) navlarini tadqiq etish. *Science and innovation*, 1(d2), 160-165.

11. Abdujabborovich, i. X. (2022). Qozoqi anorning biologik xususiyatlari. *Models and methods for increasing the efficiency of innovative research*, 2(13), 396-400.

12. Idrisov, X. A., & o'g'li Soliyev, a. M. (2022, may). Sug 'oriladigan maydonlarda soya etishtirish texnologiyasini takomillashtirish. In *international conferences on learning and teaching* (vol. 1, no. 7, pp. 286-295).

13. Abdujabborovich, i. X., & Gofurovna, r. F. (2022, may). Soya (*Glycine hispida l*) ning biologik xususiyatlari va tashqi muxit omillari. In *e conference zone* (pp. 1-5).

14. Abdujabborovich, i. X., & teshaboyev, a. (2022). Soyaning kolleksiya ko'chatzoridan samarali va maqsadli foydalanishning ilmiy ahamiyati. *Science and innovation, 1(d3)*, 286-290.

15. Abdujabborovich, i. X., & o'g'li, x. A. M. (2022). Sholi seleksiyasi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalarini tahliliy o'rganish. *Science and innovation, 1(d3)*, 276-281.

16. Abdujabborovich, i. X., o'g, p. J. G. A., o'g'li, e. K. E., & o'g, d. O. N. M. (2022). Soyaning yangi navlarini yaratishda nav namunalariidan samarali va maqsadli foydalanishning ahamiyati. *Science and innovation, 1(d3)*, 269-275.

17. Abdujabborovich, i. X., & Mirzamaksudavich, b. R. (2022). Soyaning yangi navlarini yaratish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar. *Science and innovation, 1(1)*, 776-785.

18. Idrisov, x. A. (2022, june). Osiyo loviyasi-mosh (*Phaseolus aureus piper.*)—biologik xususiyatlari. In *international conferences on learning and teaching* (vol. 1, no. 9, pp. 144-148).

19. Abdujabborovich, i. X., o'gli, u. X. I., qizi, a. D. A., qizi, y. M. N., & ogli, m. A. A. (2022). Tipik bo'z tuproqlar sharoitida mosh (*Phaseolus aureus piper*) navlarini tadqiq etish. *Science and innovation, 1(d2)*, 160-165.

20. Abdujabborovich, i. X., & teshaboyev, a. (2022). Soyaning kolleksiya ko'chatzoridan samarali va maqsadli foydalanishning ilmiy ahamiyati. *Science and innovation, 1(d3)*, 286-290.

21. Idrisov, x. A., & karimov, a. A. (2022, july). Mosh (*Phaseolus aureus piper.*) Dan yuqori hosil olishda agrotexnik omillarning ahamiyati. In *international conferences on learning and teaching* (vol. 1, no. 11, pp. 106-111).

22. Xusanjon, i., & abduxolik, k. (2022). Moshning yangi navlarini yaratishda seleksiya ko'chatzorida o'tkazilgan tadqiqotlar. *Research and education, 1(4)*, 50-56.

23. Abdujabborovich, i. X., o'g, p. J. G. A., o'g'li, e. K. E., & o'g, d. O. N. M. (2022). Soyaning yangi navlarini yaratishda nav namunalaridan samarali va maqsadli foydalanishning ahamiyati. *Science and innovation*, 1(d3), 269-275.

24. Abdujabborovich, i. X., & mirzamaxsudavich, b. R. (2022). Soyaning yangi navlarini yaratish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar. *Science and innovation*, 1(1), 776-785.

25. Idrisov, x. A., & o'g'li soliyev, a. M. (2022, may). Sug 'oriladigan maydonlarda mosh (*Phaseolus aureus* Piper.) Navlarining tavsifi. In *international conferences on learning and teaching* (vol. 1, no. 7, pp. 17-23).

26. Idrisov Xusanjon Abdujabborovich, Xalbaev Akbar Namozovich. (2022). SOYANING SELEKSIYA KO'CHATZORIDAGI NAV NAMUNALARINI QIMMATLI-XO'JALIK XUSUSIYATLARINI O'RGANISH. MODELS AND METHODS IN MODERN SCIENCE, 1(12), 22–25. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7032183>.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7032183>

27. Soyaning nazorat ko'chatzoridagi nav namunalari qimmatli-xo'jalik xususiyatlarini tahliliy organish. <https://academicsresearch.com/index.php/rnsr>. "Results of national scientific research" scientific-methodical journal Volume 1, Issue 4, ISSN:2181-3639, Toshkent 2022 y 5-son.,134-139 betlar, <https://academicsresearch.com/index.php/rnsr/ind>.

28. Khojamkulova Yulduzoy Jahonkulovna, Kashkaboeva Chulpanoy Tulkunovna, Ibragimov Feliks Yuldashevich. IN RICE (ORIZA SATIVA) VARIETIES THE PLANT GROWS AT DIFFERENT WATER THICKNESSES, WATER CONSUMPTION DURING DEVELOPMENT PERIODS, M 3, SOLUTION OF SOCIAL PROBLEMS IN MANAGEMENT AND ECONOMY International scientific-online conference. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7028149>.